

JINOYAT HUQUQI HAQIDA TUSHUNCHA

Muhammadaliyeva Irodaxon G'ayratjonovna

Farg'ona shahar Kash -hunar maktabi Ijtimoiy fan Davlat va huquq asoslari o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat, jinoyat huquqi hamda u haqida tushuncha berish borasida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Insoniyat, ijtimoiy-huquqiy, jinoyat huquqi, ma'naviyat, jinoyatchilik, muammo, Jinoyat kodeksi.

Insoniyat tarixiga nazar solinsa, jinoyat salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida doimo tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida insoniyatga hamroh bo'lib kelganiga guvoh bo'lish mumkin. V.A.Bachining so'zlari bilan aytganda: «*Svilizatsiya mavjud bo'lganidan buyon insoniyat mavjudligining haqiqiy fojiasi kundalik jinoyatlar orasida yashash, ularning jirkanch mohiyatini ko'rish, ularning barcha daxshatlarini tushunish va shu bilan birga, qat'iy qaror qabul qilish uchun yetarli ma'naviy kuchga ega bo'lmaslikdir*». Turli mamlakatlarda ilmiy (nazariy, jinoyat huquqi, kriminalistik boshqa) yutuqlarga, shuningdek, ushbu illatga qarshi kurash bo'yicha davlat huquqiy siyosati doirasida ko'rيلayotgan chora-tadbirlarga qaramay, bugungi kunda ham jinoyatchilikka barham berish muammosi hal etilmagan. Shu bilan birga, inson tabiatini dastlab shunday tuzilganki, u hech qachon bunday holatga chidamaydi, doimiy ravishda jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali vositalarini topish va jinoiy sohani takomillashtirish jarayonida yashamoqda. Buyuk yunon faylasufi, platonizm asoschisi Platon yozganidek: «Hech kim hech qachon har qanday xatti-harakati uchun jazosiz qolmasligi kerak». Shu boisdan ham jinoyat va jazo mammosi har qanday davrda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Jinoyat tushunchasi jinoyat huquqi fanining predmetini tashkil etuvchi xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Jinoyat huquqida boshqa huquq tarmoqlari uchun baza hisoblangan "jinoyat" tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Jinoyat huquqining asosiy vazifasi shaxs va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning ijtimoiy xavfli ekanligi va ularning jinoyat huquqiy tartibga solinishi kerakligini belgilashdan iboratdir. "Jinoyat" tushunchasiga jinoyat-huquqiy ta'rif birinchi bor 1791-yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida berilgan bo'lib, ushbu ta'rif formal tusga ega edi. Unda jinoyatga: "Jinoyat bu – amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir", -deya ta'rif berilgan edi. Jinoyat bu – ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2-moddasida ko'rsatil-gan vazifalarni amalga oshirish maqsadida jinoyat tushunchasi belgilab qo'yan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasi aniq belgilangan bo'lib, 14-moddaning 1-qismiga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Jinoyat – shaxsnинг jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ma'lum bir shakldagi xatti-harakati hisoblanadi. Jinoyat tushunchasi harakat yoki harakatsizlik shaklidagi shaxs-ning xulq-atvori (xattiharakati, faoliyati)ni ifodalaydi. Shu bilan bir-ga, jinoyat qonunida ruhiy

jarayonlar, o'ylar, fikriy xulosalar qancha-lik zarar keltiruvchi bo'lishiga qaramay, jinoyat hisoblanmasligi belgilab qo'yilgan. Jinoyatga moddiy tushuncha berish g'oyat muhim bo'lib, bu nafaqat jinoyat huquqining o'ziga, balki jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya huquqi, kriminalistika, kriminologiya va boshqa huquqiy fanlar uchun ham zarurdir. Shaxs tomonidan sodir qilingan qilmish (harakat yoki harakat-sizlik) jinoyat deb hisoblanishi uchun u ijtimoiy xavfli bo'lishi kerak.

Jinoyat huquqi – huquq tizimining bir tarmog'i; oliy davlat hokimiyyati organi tomonidan o'rnatilgan, qonun bilan qo'riqlanadigan, ijtimoiy munosabatlar uchun xavfli bo'lgan tajovuzlarning jinoyat ekanligi va jazoga loyiqligini, jazo choralarini tayinlash shartlari va tartibini hamda jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisi. O'zbekiston Respublikasida Jinoyat huquqining asosiy manbai O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va jinoyat qonunidir. Jinoyat huquqi jinoyat qonunining amalda tatbiq qilinishidan kelib chiqadigan munosabatlarni o'rganadi, jinoiy javobgarlik asoslari va tamoyillarini belgilaydi. Jinoyat huquqining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoii tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olishdan, fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruxida tarbiyalashdan iborat. Jinoyat huquqi davr talabidan kelib chiqqan holda qonuniylik, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi qoidalariga asoslanadi. Jinoyat huquqi 2 qismidan iborat. Bular: Umumiy qism va maxsus qism. Umumiy qism Jinoyat huquqining vazifalari va tamoyillarini amalda qo'llanish doirasi, javobgarlikning asoslari, jazo turlari va ularni tayinlash, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlar javobgarligi va tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini to'g'risidagi masalalarni o'z ichiga oladi. Maxsus qism esa alohida jinoyatlar va shu jinoyatlar uchun tayinlanadigan jazolarni o'z ichiga oladi. Jinoyat huquqi fani jinoyat qonunchiligining ijtimoiy vazifalari va ijtimoiy samaradorligini, rivojlanish tamoyillari va muammolarini ham o'rganadi.

Jinoyat huquqi qonunchilik sohasi sifatida davlatning oliy qonun chiqaruvchi organi - Oliy Majlis chiqargan qonun va normalar yig'indisidan iborat bo'lib, u jinoiy javobgarlik asoslari va prinsiplari, ayrim qilmishlarning jinoiyligi va jinoiy jazoga loyiqligi, jinoiy javobgarlikka tortish va jinoiy jazoni o'tashdan ozod qilish asoslari va meyorlari, jinoyat huquqiga oid ta'sirming jinoiy jazo hisoblanmaydigan hamda jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasida ijobjiy va ijtimoiy foydali xulq-atvorni rag'batlantiruvchi boshqa ta'sir choralarini qo'llashni belgilaydi.

Jinoyat qonunlarining vazifalari qatoriga jinoyatlarning oldini olish kiradi. Binobarin, jinoyat huquqini tartibga solish predmetiga oldini olish ijtimoiy munosabatlari ham kiradi. Mazkur munosabatlar jinoyat huquqiga oid taqiqdan kelib chiqadi hamda ba'zi toifadagi shaxslarni jinoyat sodir etishdan qaytarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Jinoyat qonuni vazifalarini bajarish quyidagilar orqali amalga oshiriladi: javobgarlik asoslari va prinsiplarini aniqlash; jinoyat toifasiga kiritilgan qilmishlar doirasini aniqlash; jinoiy jazo choralarini tayinlash; jazodan tashqari huquqiy ta'sir choralarini tayinlash va

hokazo. Binobarin, jinoyat huquqi predmetini tashkil qiluvchi har bir alohida ijtimoiy munosabatga uni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi aniq usul mos keladi. Chunonchi, usulning umum qo'llanadigan ma'nolariga ish usuli, yo'li, tarzi degan ma'nolar kiradi.

Demak, jinoyat huquqining predmetini tashkil qiluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi, deb xulosa qilish mumkin: 1) ijtimoiy xavfli hamda qonunga xilof qilmish sodir etgan shaxslarga jinoiy-huquqiy sanksiyalarini qo'llash;

- 2) jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning qat'iy meyorlanganligi;
- 3) jazodan yoki uni o'tashdan ozod qilishning huquqiy tartibga solinganligi;
- 4) tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash;
- 5) jinoyat huquqiga oid taqiqning o'rnatilganligi;

6) kodeksda aniq ko'rsatilgan shartlar mavjud bo'lganda, qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlarga zarar yetkazish huquqining fuqarolarga berilganligi va hokazo.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. -T.: Adliya vazirligi, 2004.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. -T.: Adliya vazirligi, 2004.
4. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). -T.: Adolat, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar -T.: Adolat, 1997.
6. Уголовное право. Общая часть. (Учебник для ВУЗов). Под общ. редакцией доктора юр. наук, проф., З.А.Незнамова) // -М.: Инфра-Норма, 1999.